

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**“ IQTISODIYOT ” FAKULTETI**

**“MAKROIQTISODIY SIYOSAT VA PROGNOZLASH” KAFEDRASI**

*Qo'lyozma huquqida*

UDK: 330.101.541:338(575.1)

**SUVONOV SUXROBJON ZIYOVUTDIN O‘G‘LI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA “YASHIL” IQTISODIYOTNI  
QO‘LLAB-QUVVATLASHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI**

70310103 – “Makroiqtisodiyot” mutaxassisligi bo‘yicha  
magistrlik akademik darajasini olish uchun yozilgan


**DISSERTATSIYA**

**Ilmiy maslahatchi: PhD., dotsent, Rahimov X.Sh.**

**Toshkent 2024**

Dissertatsiya “Makroiqtisodiy siyosat va prognozlash” kafedrasida 2024 yil \_\_\_\_ - sonli  
“ \_\_\_\_ ” bayonnomasida dastlabki himoyadan o'tkazilgan.


Kafedra mudiri: Asqarova M.T.

  
Imzo

21.05.2024

sana

Ilmiy rahbar: Rahimov X.Sh.

  
Imzo

21.05.2024

sana

Magistr: Suvonov S.Z.


  
Imzo

21.05.2024

sana

Dissertatsiya “Iqtisodiyot” fakultetining 2024-yil “ 21 ” 05  
No 3/04 sonli bayonnomasi bilan ro'yxatga olingan.

Fakultet dekani



v.b. X.Sh.Rahimov

## Annotatsiya

O'zbekiston Respublikasida "Yashil iqtisodiyot" prinsiplari asosida barqaror rivojlanishni ta'minlash bugungi kunda iqtisodiyotimizda dolzarbligi oshib bormoqda. Xususan, "Yashil iqtisodiyot"ni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri iqtisodiyotda energiya va resurslar sarfini kamaytirish, ishlab chiqarishga energiya tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish, tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish hisoblanadi.

Shu bois tadqiqot davomida mavzu doirasida atroflicha izlanish olib bordik. Jumladan mavzuga doir boshqa dissertatsiya ishlari, mahalliy va xorijiy olimlar qarashlari, ilmiy maqolalari, shuningdek mavzuga oid mahalliy meyoriy xujjatlarni o'rgangan holda adabiyotlar sharhi tayorladik. Ilmiy ishning amaliy ahamiyatini oshirish maqsadida Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi "Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi"da "Yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi: maqsad va vazifalarini belgilab olish va ular bilan ishlash qay darajada amalga oshirilayotganligini statistik ma'lumotlar asosida tahlil usullar yordamida o'rgandik. Bundan tashqari yashil iqtisodiyot sohasida xorij tajribalari bilan ham tanishib chiqdik. O'rganilgan va tahlil qilingan ma'lumotlar asosida barqaror rivojlanishni ta'minlashda "yashil" iqtisodiyotning o'рни mavzusi bo'yicha ilmiy va amaliy asoslangan xulosa, taklif va tavsiyalar ishlab chiqdik.

**Kalit so'zlar:** *yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, yashil investitsiya, yashil energetika, qayta tiklanadigan energiya, yashil o'sish, yashil taraqqiyot, yashil tiklanish.*

## *Summary*

Ensuring sustainable development in the Republic of Uzbekistan based on the principles of "Green Economy" is becoming increasingly relevant in our economy today. In particular, one of the priorities in the development of a "green" economy is to reduce energy and resource consumption in the economy, the widespread introduction of energy-saving technologies in production, expanding the use of renewable energy sources.

Therefore, we conducted extensive research on the topic throughout the study. In particular, we have prepared other dissertations on the subject, the views of local and foreign scholars, scientific articles, as well as reviews of local and foreign documents on the subject. In order to increase the practical significance of scientific work in the "School of Business and Entrepreneurship Clay" under the Ministry of Economic Development and Poverty Reduction Strategy for the transition to a "green" economy: setting goals and objectives and the extent to which they are implemented studied using analytical methods. We also got acquainted with foreign experience in the field of green economy. Based on the studied and analyzed data, we have developed scientifically and practically based conclusions, proposals and recommendations on the role of the green economy in ensuring sustainable development.

**KEY WORDS:** green economy, sustainable development, green investment, green energy, renewable energy, green growth, green development, green recovery.

## MUNDARIJA

|                                                                        |           |
|------------------------------------------------------------------------|-----------|
| Annotatsiya .....                                                      | 3         |
| Mundarija .....                                                        | 5         |
| Keltirilgan jadvallar ro'yxati .....                                   | 7         |
| Keltirilgan rasmlar ro'yxati .....                                     | 8         |
| Keltirilgan qisqartmalar .....                                         | 9         |
| <b>I BOB. KIRISH .....</b>                                             | <b>10</b> |
| 1.1. Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi .....  | 10        |
| 1.2. Tadqiqot maqsadi va vazifalari .....                              | 14        |
| 1.3. Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari .....                 | 14        |
| 1.4. Tadqiqot obyekti va predmeti .....                                | 15        |
| 1.5. Tadqiqot natijalarining ilmiy – nazariy va amaliy ahamiyati ..... | 16        |
| 1.6. Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi .....                  | 16        |
| <b>II BOB. ADABIYOTLAR SHARHI .....</b>                                | <b>18</b> |
| 2.1. Kirish .....                                                      | 18        |
| 2.2. Mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlar sharhi .....                  | 18        |
| 2.3. Mavzuga oid mahalliy me'yoriy-huquqiy hujjatlar sharhi .....      | 25        |
| 2.4. Xulosa .....                                                      | 34        |
| <b>III BOB. METODOLOGIYA .....</b>                                     | <b>35</b> |
| 3.1. Tadqiqot dizayni .....                                            | 35        |
| 3.2. Ma'lumotlarni to'plash jarayoni .....                             | 35        |
| 3.3. Tahlil uchun qo'llaniladigan usullar .....                        | 35        |

|                |                                                                                                      |           |
|----------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------|
| 3.4            | Tadqiqotni o'tkazish uchun zarur sharoitlar.....                                                     | 37        |
| 3.5            | Tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolar va ularning yechimi .....                                 | 38        |
| 3.6            | Tadqiqotdan kutilayotgan ilmiy va amaliy natijalar.....                                              | 39        |
| <b>IV BOB.</b> | <b>TAHLIL VA NATIJALAR .....</b>                                                                     | <b>40</b> |
| 4.1.           | O'zbekiston Respublikasida "yashil" iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlashning iqtisodiy mexanizmlari..... | 40        |
| 4.2.           | Mamlakatimizda investitsiya siyosati doirasida yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning tahlili.....  | 48        |
| 4.3.           | Tahlillardan olingan natijalar sharhi .....                                                          | 62        |
| <b>V BOB.</b>  | <b>XULOSA .....</b>                                                                                  | <b>64</b> |
| 5.1.           | Tadqiqot savoliga tegishli natijalarning qisqacha ifodasi.....                                       | 64        |
| 5.2.           | Tadqiqotning asosiy taklif va tavsiyalari .....                                                      | 65        |
| 5.3.           | Tadqiqot cheklovlari va kelgusi tadqiqotlar uchun takliflar .....                                    | 67        |
|                | <b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI .....</b>                                                      | <b>68</b> |
|                | <b>ILOVALAR .....</b>                                                                                | <b>72</b> |

## I BOB. KIRISH

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi.** So‘nggi yillar ichida “yashil” iqtisodiyot g‘oyasi nafaqat ekologiya iqtisodchilari, balki dunyoda ham keng muhokama qilinadi. Bu borada turli siyosiy forumlarda, davlat rahbarlari, siyosatchi olimlar tomonida bu masalaga ko‘p bora to‘xtalib kelinayotganligi “yashillashtirish” siyosatiga bo‘layotgan jiddiy e‘tibor bo‘lib hisoblanadi. Bugungi kunda zamonaviylashgan iqtisodiyot sharoitida insoniyat ehtiyoji ham misli ko‘rilmagan tarzda oshib bormoqda. Bundan kelib chiqadiki, ehtiyojlarni qondirish uchun zarur bo‘lgan resurslarni olishda tabiatga “murojaat qilish” ham ko‘payib bormoqda. “Yashil iqtisodiyot” mana shunday o‘zgarishlar kelajak avlod hayotiga salbiy ta‘sir qilishini oldini olish va ular uchun ham farovon hayot ta‘minlash zaruriyatidan kelib chiqmoqda. Agarda amalga oshirilayotgan iqtisodiy munosabatlarning tabiatga salbiy ta‘siri oldi olinmasa, u nafaqat kelajak avlod hayotiga, balki jamiyatning hozirgi sharoitiga ham jiddiy salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Va aksincha, insoniyatning atrof tabiiy muhitga munosabati o‘zgarsa, ularda avvalo, ekologik madaniyat rivojlansa, ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish va mahsulotni iste‘mol qilish bilan munosabatlar “yashillashtirish” sa‘y-harakatlariga moslashsa, albatta, biz va kelajak avlod hayotining ijobiy tarafga o‘zgaradi. Ya‘ni “Yashil” iqtisodiyot aholi farovonligini ta‘minlashdagi va iqtisodiy o‘shishda kabi barqaror rivojlanishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, barqaror rivojlanish asosiy uch ustundan iboratdir. Bular: ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik. Barqaror rivojlanish atrof muhit va tirik mavjudotlarni mahofaza qilishi, mamlakat iqtisodiyotini rivojlanishiga yordam berishi, shuningdek jamiyat rivojiga hissa qo‘shishi kerak. Iqtisodiy va ijtimoiy ustun jamiyat oldiga aholining kambag‘al guruhlariga maqsadli yordam ko‘rsatishni o‘ziga vazifa sifatida qo‘ymoqda. Iqtisodiy -ekologik ustun atrof muhitga tashqi tasiri qiymatini baholash bilan bog‘liq g‘oyalar olib keldi.

“Yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirishda energetika tarmog‘ida resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish samaradorligi past darajada ekanligi, tabiiy